

**“O‘ZBEKTELEKOM” AK SUV
RESURSLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISHINI BOSHQARISH SIYOSATI**

CONTENTS

I Umumiy qoidalar	3
II Siyosatning maqsadlari va vazifalari	3
III Qo‘llash sohasi	3
IV Suv resurslarini boshqarish tamoyillari	3
V Tadbirlar rejasi	4
5.1. Suv iste’molini baholash va monitoring qilish.....	4
5.2. Suv samaradorligini oshirish choralar	4
5.3. Xizmat ko‘rsatish va yo‘qotishlarning oldini olish	4
5.4. Xodimlarning xabardorligini oshirish.....	4
VI Mas’uliyat va nazorat	5
VII Xulosa.....	5

I Umumiy qoidalar

Tabiiy resurslardan, jumladan, suvdan oqilona foydalanish “O‘zbektelekom” AKning barqaror rivojlantirishi va korporativ mas’uliyatining muhim qismi hisoblanadi. Ushbu Siyosat “O‘zbektelekom” AKning ishlab chiqarish, ma’muriy va texnik faoliyati doirasida suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan maqsadlar, tamoyillar, yo‘nalishlar va tadbirlarni belgilaydi.

Mazkur siyosat “O‘zbektelekom” AKning barcha sho‘ba tashkilotlari va xodimlari, jumladan, filiallari va sho‘ba korxonalari tomonidan majburiy ravishda qo‘llaniladi. Filiallar va sho‘ba korxonalari rahbarlari hamda xodimlari mazkur siyosat qoidalarini mahalliy qonunchilik va ichki tartib-qoidalar doirasida joriy etish, moslashtirish va amalga oshirish uchun javobgar hisoblanadi.

II Siyosatning maqsadlari va vazifalari

Asosiy maqsadlar:

- Suvdan barcha jarayonlarda barqaror va oqilona foydalanishni ta’minlash;
- Suv yo‘qotishlari, sizib chiqishlar va samarasiz iste’molni minimallashtirish;
- Suv iste’moli hisobini yuritish, shaffoflik va nazorat darajasini oshirish;
- Suvni tejoychi texnologiyalar va uskunalarni joriy etish;
- Mumkin bo‘lgan hollarda texnik suvni qayta foydalanishga yo‘naltirish;
- Xodimlarning ekologik xabardorlik darajasini oshirish.

Vazifalar:

- Suv iste’molini ichki audit va monitoring qilish;
- Suv iste’molining samarasiz uchastkalarini aniqlash va bartaraf etish;
- Suvdan samarali foydalanishga mo‘ljallangan infratuzilmaga investitsiya kiritish;
- Xodimlarni o‘qitish va jalb etishni ta’minlash;
- Suv samaradorligi bo‘yicha muntazam hisobotlarni e‘lon qilish.

III Qo‘llash sohasi

Siyosat quyidagi obyektlar va jarayonlarga tatbiq etiladi:

- Ofis binolari va ma’muriy xonalar;
- Texnik markazlar va baza stansiyalari;
- Ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari (MQIM);
- Ishlab chiqarish va omborxona binolari;
- Sovutish va konditsioner tizimlari;
- Xo‘jalik-maishiy suv ta’minoti.

IV Suv resurslarini boshqarish tamoyillari

- **Ratsionallik:** Suvdan faqat zarur hajmda foydalanish;
- **Hisob va nazorat:** Suv hisoblagichlari bilan to‘liq qamrov, monitoringni avtomatlashtirish;

- **Oldini olish:** Sizib chiqishlarni bartaraf etish, eskirgan uskunalarni modernizatsiya qilish;
- **Innovatsionlik:** Suv samaradorligi sohasida yangi yechimlarni joriy etish;
- **Shaffoflik:** Ichki hisobotlarni tayyorlash va e'lon qilish;
- **O'qitish:** Xodimlarning bilimlarini muntazam oshirish.

V Tadbirlar rejasi

5.1. Suv iste'molini baholash va monitoring qilish

- Barcha obyektlarda suv iste'molining kompleks auditini o'tkazish;
- Suv resurslari va iste'molchilar xaritasini ishlab chiqish;
- Xalqaro va mahalliy talablar asosida suv hisoblagichlarini o'rnatish/modernizatsiya qilish;
- Suv iste'molini kuzatish va tahlil qilish uchun axborot texnologiyalari tizimlarini joriy etish;
- Ichimlik va xo'jalik-maishiy ehtiyojlar uchun suv sifatini monitoring qilish va tahlil etish;
- Suv tanqisligi mavjud hududlarni aniqlash uchun xalqaro vositalardan (Aqueduct Water Risk Atlas) foydalanish va ushbu hududlardan suv iste'molini monitoring qilish.

5.2. Suv samaradorligini oshirish choralar

- Eskirgan sanitariya-texnik jihozlarni suvni tejovchi vositalarga (aeratorlar, kontaktsiz kranlar, ikki bosqichli yuvish tizimlari va boshqalar) almashtirish;
- Texnik zonalarda va sovutish tizimlarida aylanma suv ta'minoti tizimlaridan foydalanish;
- Suv iste'molini kamaytirish maqsadida konditsioner va shamollatish tizimlarini modernizatsiya qilish;
- MQIMlarning sovutish tizimlarida suvni qayta foydalanish amaliyotlarini joriy etish;
- Texnik ehtiyojlar, sug'orish, yuvish ishlari uchun yomg'ir suvini yig'ish.

5.3. Xizmat ko'rsatish va yo'qotishlarning oldini olish

- Mas'ul xodimlar tomonidan har chorakda sizib chiqishlarning mavjudligini tekshirish;
- Suv iste'molida anomaliyalar yuzaga kelganda tezkor javob berish tizimini joriy etish;
- Hodisalarni va nosozliklarni bartaraf etish muddatlarini hisobga olish;
- Avariylar, xarajatlar va javob berish muddatlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish.

5.4. Xodimlarning xabardorligini oshirish

- Muntazam trening va yo'riqnomalar o'tkazish;
- O'quv treninglari, seminarlar, tadbirlar va dasturlarni o'tkazish uchun malakali tashkilotlar/maslahatchilarni jalb etish;
- Ichki eslatmalar va vizual materiallarni tayyorlash;

- Suvni tejash tashabbuslari uchun rag‘batlantirish dasturlari.

VI Mas’uliyat va nazorat

- Siyosatning amalga oshirilishi ustidan umumiy nazorat Transformatsiya va strategik rivojlantirish departamenti tomonidan amalga oshiriladi;
- Tadbirlarni amalga oshirish uchun javobgarlik bo‘linmalar rahbarlariga yuklanadi;
- Suv samaradorligi natijalari bo‘yicha hisobot har yili ijro apparatiga, xususan, Transformatsiya va strategik rivojlantirish departamentiga taqdim etiladi.

VII Xulosa

“O‘zbektelekom” AK suv resurslarining barqaror biznes uchun tanqidiy ahamiyatga ega ekanligini tan oladi. Ushbu Siyosat ekologik mas’uliyat va samaradorlikka intilishni aks ettiradi. U har 3 yilda yoki qonunchilik va ishlab chiqarish faoliyatidagi o‘zgarishlarga muvofiq qayta ko‘rib chiqilishi shart.